

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X. Gulyamova, U. Shermatova	79	Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "pirls" nazoratiga tayyorlash
A. Karimjonov, O. Jabborova	83	Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi
Z. Shanasirova	86	Bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

R. Nosirova, N. Rustambekova	89	O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish texnologiyalari
-------------------------------------	-----------	---



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

E. Soatov	93	Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish
F. Abdullayev B. Abdullayeva	97	Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'rni
A. Jo'raboyev	101	Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri
E. Hurramov	104	Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga umumiy tasnif



MAKTABGACHA TA'LIM

N. Maripova	107	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikasiya yasash usullarini o'rgatish
A. Sanakulova	111	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar
Z. Teshabayeva	114	Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish
L. Narimbayeva	117	Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida teatrning roli
N. Urinova, A. Abdullayev	121	Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati
Z. Nasirova	124	Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatik aspektlari
S. Xolmatova	128	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Z. Narimbetova	131	Matematika darslarida o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni
-----------------------	------------	--



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Мардонов, У. Закирова	134	Об основных понятиях педагогических ценностей
Ю. Кушназарова	138	Теоретические исследования в математике



ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

Р. Гимазутдинов	141	Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников
------------------------	------------	--

Xolida GULYAMOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası katta o‘qituvchisi

Umida SHERMATOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI XALQARO “PIRLS” NAZORATIGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarni xalqaro “PIRLS” nazoratiga tayyorlashda o‘qish darslarida qo‘llanadigan ta‘lim texnologiyalari hamda matn ustida ishlashga yo‘naltiradigan savol va topshiriqlarga qo‘yiladigan talablar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta‘lim, “PIRLS” nazorati, taqqoslash, qiyoslash, bosqichli izchillik, “Bliss” texnologiyasi, “Venn” diagrammasi, “Insert”, “So‘zlarni guruhlash”.

В этой статье обсуждаются образовательные технологии, используемые на уроках чтения для подготовки студентов к международной супервизии PIRLS, а также требования к вопросам и заданиям, посвященным работе с текстом.

Ключевые слова. Начальное образование, контроль PIRLS, сравнение, сравнение, пошаговая последовательность, технология Bliss, диаграмма Венна, вставка, группировка слов.

This article discusses the educational technologies used in reading lessons to prepare students for international PIRLS supervision, as well as the requirements for questions and assignments that focus on working on the text.

Key words. Elementary education, PIRLS control, comparison, comparison, step-by-step sequence, Bliss technology, Venn diagram, Insert, Word grouping.

Boshlang‘ich ta‘lim metodikasida o‘z yechimini kutayotgan muammolardan biri – o‘qituvchilarning ta‘lim texnologiyalaridan betartib, yo‘l-yo‘lakay, yuzaki foydalanish bilan bog‘liq. Har qanday ta‘lim texnologiyasini puxta o‘zlashtirishning o‘zi shu texnologiyadan to‘gridan-to‘g‘ri foydalanish mumkin degani emas. O‘qituvchi o‘zlashtirilgan yangi texnologiyadan qanday dars turida, mashg‘ulotning qaysi boshqichida foydalanish samara berishini bilishi, shu texnologiyadan ongli foydalana olishi lozim.

“PIRLS” dasturi talablariga ko‘ra o‘quvchilarning matnni o‘qish, tushunish, asar voqealariga mustaqil munosabat bildirish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishda ta‘lim texnologiyalaridan o‘qish darslarida foydalanish usullarini yoritishga harakat qilindi.


O‘quvchi o‘qish ko‘nikma va malakalarini egallashlari uchun o‘qish darsining uchdan ikki qismida turli topshiriq va savollar asosida o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lishlari talab

etiladi¹. Bunda o'quv topshiriqlari asarda qo'llangan so'zlar ma'nosini aniqlashtirishga, voqealar o'rnini, vaqtini, voqeaning qaysi davrga aloqadorligini ilg'ay olishiga, voqealar-ning sabab-natijalarini aniqlashga, asar qahramonlarining xatti-harakatini baholashga, badiiy tasvir vositalarini ajrata olishga, uning vazifasini tushunishga, yozuvchining ilgari surayotgan g'oyalarini aniqlashga, mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirilishi kerak. O'quvchini asarni qayta-qayta o'qishdan zeriktirmaslikning muhim omillaridan biri ham ma'lum maqsadga yo'naltirilgan topshiriqlar hisoblanadi.

Bundan tashqari topshiriqli o'qitish usuli o'quvchi diqqatini asarning eng muhim o'rinlariga qaratadi. Asar qayta-qayta o'qitish bilimni chuqur egallash, lug'atni boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, asardan to'g'ri tarbiyaviy xulosa chiqarish garovi hamdir.

Lug'at ustidagi ishlarni mustaqil ish metodida (asardan ma'nosini tushunmaydigan so'zlarni topish va lug'at daftariga yozish, izohli lug'atdan foydalanib izohlash, o'rtog'laridan savol vositasida so'rash), ta'limiy o'yinlar (“So'z mulkiga sayohat”, “So'zlarning ajoyib olami”, “Qochgan so'zni top”)(chiziqchalar o'rniga tegishli so'zni qo'yib o'qish) tashkil etish o'quvchilar qiziqishini oshiradi, ularda badiiy nutqning shakllanishiga yordam beradi.

Asarni qahramoniga tavsif berishda taqqoslash, qiyoslash – tizimidan, “Tarmoqlash” usulidan, tarixiy shaxslar haqidagi asarlar o'qilganda yoki ikki qismli asar o'qilganda ularning kompozitsion tuzilishi bilan bog'liq xususiyatlarini to'ldirib boruvchi jadvallardan foydalanish bo'lishi mumkin. Masalan, bunga Erkin Samandarning “Shahzodaning bolaligi”² hikoyasi sujetini misol qilib keltirish mumkin:



Ma'lumki, dars bosqichli izchillik tamoyili asosida olib boriladi. Har bir amalga oshirilgan tahlil keyingi tahlil uchun zamin yaratishi, boshqacha aytganda, berilgan bilim keyingi bilimning muvaffaqiyatini ta'minlashi lozim. Masalan, 1-4-sinflarda Alisher Navoiy haqida bir necha asar o'qilgan bo'lsa, har bir asarda buyuk shoir xarakter xususiyatining muhim bir qirrasini ochiladi. Bola ularni eslab jadvallarni to'ldirib borishi mumkin. Asar qahramonlariga berilgan tavsif asar g'oyasini belgilashga, tarbiyaviy xulosa chiqarishga yordam beradi. Masalan:

1-sinda “Alisherning yoshligi”	2-sinfda “Bosh va til”	3-sinfda “Alisher va mardikor”	4-sinfda “Alisherning yoshligi”
Hayvonlarga mehribonligi	Donoligi	Xalqparvarligi	Ilmga chanqoqligi

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish adabiy ta'lim oldidagi eng muhim vazifa sanaladi. Og'zaki nutqni rivojlantirish o'qish darslarida qayta hikoyalash bilan cheklanmasdan asarning sujeti va kompozitsion tuzilishi ustida ishlash, lug'at ustida ishlash, mustaqil fikrlash, tanqidiy munosabatda bo'lish orqali amalga oshiriladi. Asarni turli topshiriqlar asosida o'qitish, o'quvchilar lug'at boyligi ustida ishlash, asarning qismlari yuzasidan savol-javob o'tkazish, reja tuzish, reja qismlariga taalluqli qismni

¹ Matchonov S. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.

² Matchonov S. va b. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2020.

o'qish, rejaning har bir qismini hikoyalash asarni to'liq badiiy hikoyalashga tayyorlaydi. Qayta hikoyalashda o'quvchilar diqqat-e'tibori rejaga, "tayanch so'zlar" va asar "Xarita"³siga qaratilishi kerak. Ularga qarab asar mazmunini eslab, izchil hikoyalaydi. Masalan, "Dahshatli meshpolvon" asari bo'yicha "Xarita" dastlabki paytda doskaga tayyor holda chizib qo'yiladi yoki "Xarita"ni so'zlash jarayonida o'quvchilar tuzadi. Bular fikrni izchil bayon qilish imkonini beradi. Asar "Xarita"sini tuzishda tayanch so'zlardan foydalanadi. Tayanch so'zlar 7 ta yoki undan ortiq bo'ladi.

O'qish darsida ayrim topshiriqlar jadvallar asosida yozma bajartirilishi mumkin. Bu o'quvchilarni aniq va lo'nda javob berishga, savodli yozishga o'rgatadi. Topshiriqlar asardagi asosiy fikrlarni, asardagi qahramon va joy tasvirini, badiiy tasvir vositalarini (jonlantirish, o'xshatish kabi)larni aniqlashga qaratiladi.

"Bliss" texnologiyasi, "Venn" diagrammasi, "Insert", "So'zlarni guruhlash" jadvallaridan ham foydalanish o'quvchi diqqatini asarni chuqur o'zlashtirish va asardan to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam beradi. "Venn" diagrammasi o'quvchilarni ikki hodisa yoki ikki qahramon o'rtasidagi o'xshash va farqli xususiyatlarni ajratish va umumlashtirishga, xulosa chiqarishga undaydi.

O'quvchilarni asarni o'qishga tayyorlashda rasmlar va matnga oid lavhalar namoyish etish mumkin. Masalan, "Shahzodaning bolaligi" asari bilan tanishtirishda xorazmshohlar vakili bo'lgan vatanparvar Jaloliddin Manguberdining jasorati tasvir etilgan rasmlar yoki lavhalar namoyish qilinadi. Ko'rganlari asosida suhbat o'tkaziladi. Suhbatda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Lavhalarda tasvirlangan inson kimligini bildingizmi?
2. Jaloliddin Manguberdi qanday inson ekan? U haqida nimalar bilasiz?
3. O'ylab ko'ring. Bugun o'qiydigan hikoyamiz kim haqida ekan?

Hikoya bilan tanishtirishda "Shahzodaning bolaligi" hikoyasi audiotasmasi vositasida eshittirish o'quvchilar diqqatini jalb qilishning samarali vositalaridan biridir.

O'quvchilarning hikoya yuzasidan dastlabki tushunchalarini aniqlashda ularning hikoyadan olgan dastlabki tasavvur va taassurotlarini, asarning sarlavhasi bilan mazmuni, g'oyasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, voqealar tizimida qahramonlarning xatti-harakatlariga dastlabki munosabatlarini ochishga yordam beruvchi savollar beriladi. Masalan, "Shahzodaning bolaligi" hikoyasi yuzasidan quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- Kuzbor Malikni malika Oychechak nima maqsadda suhbatga chorladi?
- malika ustoddan nimalarni iltimos qildi?
- nima uchun hikoya "Shahzodaning bolaligi" deb nomlangan?

Hikoyaning mazmuni, g'oyasi, voqealar tizimini chuqurroq anglatish maqsadida hikoya qismlarga ajratilib qayta o'qish ham samarali usullardan biridir.

Tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzishda o'quvchilar matnni sezgirlik bilan o'qishi, matndagi tushunarsiz so'zlarni ilg'ay olishi lozim. Shu maqsadda asar matnini ichdan o'qish kutilgan natijani ta'minlaydi. O'quvchilarni ichdan o'qishga jalb etishdan avval "So'zlarning ajoyib olami" rukni tashkil etiladi. Masalan, "Shahzodaning bolaligi" hikoyasining 1-qismidagi tushunarsiz so'zlar shu rukn ostiga quyidagicha yozib qo'yiladi.

Ehtirom – yuksak hurmat, izzat-ikrom.

Sadoqat – sodiqlik, vafodorlik.

Mulozim – saroy xizmatchisi.

Otaliq – shahzodaning otasiga xos vazifalarni bajaruvchi mulozim.

3. Matchonov S.va b. 4-sinfda o'qish darslari. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2007.

Amr etmoq – buyurmoq, farmon bermoq.

Valiahd – taxt vorisi.

Ikkinchi va uchinchi qismdagi tushunarsiz soʻzlarni topib, “Soʻzlarning ajoyib olami” ruknini oʻquvchilarning oʻzlariga mustaqil toʻldirish topshiriladi.

Oʻquvchilarning hikoyani izchil qayta hikoyalashga tayyorlashda quyidagicha testlardan ham foydalaniladi. Masalan, “Shahzodaning bolaligi” hikoyasi yuzasidan quyidagi koʻrinishda test berish mumkin:

Ona mehri.

Oychechakning niyati.

Kuzbor Malik malika huzurida.

Voqealar ketma-ketligini raqamlar bilan belgilang.

Matnni oʻqigach, oʻquvchilar voqealar ketma-ketligini raqamlar bilan belgilaydi.

3.Ona mehri.

2.Oychechakning niyati.

1.Kuzbor Malik malika huzurida.

Oʻquvchilarni “PIRLS” dasturiga muvofiq tayyorlashda oʻqish darslarida badiiy asar tahlilini uyushtirishda har bir amalga oshiriladigan tahlil oʻquvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashga, asar voqealarini hayot bilan bogʻlay olishiga, xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S.va b. *Ona tili oʻqitish metodikasi*. – T.: Noshir, 2009.
2. Matchonov S.va b. *Oʻqish kitobi. 4-sinf uchun darslik*. – T.:Yangiyoʻl poligraf servis, 2020.
3. Matchonov S va b. *4-sinfda oʻqish darslari*. – T.:Yangiyoʻl poligraf servis, 2007.